

O'ZBEKISTONDA SUV TRANSPORTINING RIVOANISHI ISTIQBOLLARI

Ro'zmanova Ra'no G'ulomjon qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim

asoslari yo'nalishi 3-kurs talabasi

Davronova Shahina

Buxoro davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy

bilim asoslari yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annatsiya: O'zbekiston Respublikasi suv transporti rivojlanishiga to'sqinlik qiladiga muomalar uning materik qoq markazidaligi, okeanga chiqish uchun kamida ikkita davlat hududidan o'tish kerakligi uning noqulay hudduda joylashganligidan hisoblanib mustaqillikgacha bo'lgan davrda dengiz yo'llariga chiqish uchun qurilgan temiryo'l linyalari va mustaqillikdan keyin Markaziy osiyo davlatlaridavlatlari kelishuvlar imzolanishi bizning suv trsporti rivojlanishiga yo'l ochdi hamda buning negizida transport tizimlari birlashtirilib, O'sh-Ergashtom-Qoshg'r temiryo'llari linyalarining qurulishi boshlandi hamada Amudaryoda Termiz, Nuks, Urganch daryo portlari tashkil qilinganili suv transportini yanada salohiyamimini yaxshilab ularning texnik bazasini yaxshilash lozimdir.

Kalit so'zlar:suv transporti, dunyo okeani, degiz yo'llari, temiryo'llar, iqtisodiy salohiyat, rivojlanish darajasi, Tinch okeani, Hind okeani, Markaziy osiyo, Termiz daryo porti, Asosiy muomolari.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida transport tizimlari ichida ko'lami nuqta nazaridan oxirgi o'rinlardan biri bo'lgan suv transporti bo'lib hisoblanadi. Bilamizki suv transporti boshqa transport turlari ichida qulayligi, xafsizligi, yuk tashish hajmining kattaligi, arzonlik darajalariga ko'ra ajralib turadi. Jahon dengiz va daryo transportining rivojlanishi tufayli dunyo okeani mamlakatlarni, qitalarni bir biridan ajratuvchi emas, balki ularni bog'lab turuvchi vositaga aylandi.

Xalqaro tashiladigan butun yuklarning 4/5 qismiga yaqini dengiz transportida tashiladi.

O'zbekistonda okeanlariga chiqib halqaro dengiz portlarida faol ishtirok etish uchun kamida ikkita davlatni bosib o'tishi kerak bo'lgan dunyoda ikkita davlatlardan biri ekanligi (yana biri Yevropa qit'sidagi Lixtenshteyn) mamlakatimizning suv transporti rivojlanishi uchun dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdoni suv transporti orqali amalga oshirishda bir qator noqulayliklarga olib kelmoqda.

O'zbekistonning dengiz portlariga chiqish imkoniyati yo'qligini, buning uchun kamida ikkita davlat hududidan kesib o'tishni xisobga olib, yuklarni ishlab chiqarish va istemolchilarga yetqazish uchun iqtisodiy qulay samaraliy transport koridorini tashkil qilish kerak bo'ladi. Karidor nima? bu barcha transport vositalarini birglikda kelishilgan xolda aniq yuklarni aniq tomonlarga tashishda qatnashish bo'lib aynan bu borada yurtimizda bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Masalan, O'zbekiston uchun intermodel metodik koridorlarni qo'llash borasida 1990-yillar o'rtasida temiryo'llar qurilib transport yuklarni 3 yo'nalishda harakatlangan.

1.Chorjo'y-Nukus-Gurev-Astraxan unda Rassiya va Ukrainaning qora dengiz Portlariga chiqish uchun qurulgan bu temiryo'l linyalari.

2.Qizil O'rda-Orol-Aktuyubinsk Boltiq portlariga chiqish uchun qurilgan linya. 3.Chimkent-Olma-Ota-Semipalatinsk linyasi Rassiya, Uzoq Sharq portlariga chiqish mkoniyatini bergan ammo bu yo'nalishlar birmuncha uzoq bo'lganligi sababli mustaqilligimizdan keyin Markaziy Osiyo mamlakatlar 1991-yil 17-dakabrda Ashxobodda 5 ta respublika raxbarlari respublikalararo ittifoqinig kelishuv bayonnomasini imzoladi. Bunda Hind okeaniga Karachi portiga Afg'oniston Pokiston hududlari orqali o'tib chiqish mumkinligi hamda Tinch okeaniga O'sh-Ergashtom-Qoshg'ar stansiyalari qurulish orqali chiqish mumkinligi bunda hamma Qirg'iziston va Xitoy davlatlarini hududida magstrallar o'tqazish maqsadga muvofiqligi aytib o'tildi.Bunday temiryo'llar linyalari qurilishi hamda transport tizimlari birlashtirilib xalqaro savdoning asosiy yuk tashiladigan qismi bo'lgan dunyo okeaniga chiqish salohiyatimiz oshishi mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishiga olib keladi va xalqaro savdoda bizning ham ulushimiz ortadi.

O'zbekiston hududida suv transportining rivojlanmaganligining asosiy sababi suv transporting faqat daryo transporti turigina bizda mavjud bo'lib, daryo to'ri ham hududimizda birmuncha zich bo'lmaganligi sababli faqatgina mamlakatimizning janubi va janubi-g'arbiy qismidan oqib o'tuvchi Amudaryo orqali yuk tashish amalga oshirilishi mumkin. Amudaryo o'zanida Afg'oniston bilan chegara bo'ylab qo'shnilarni foydalanadigan katerlar va qayiqlar harakat qiladi xalos. Amudaryoning yuqori oqimida Termiz shahrida Termiz daryo porti joylashkanligi shuningdek bu yerda Termiz daryo porti, suv yo'lining Termiz uchastkasi, kema tamirlash ustaxonalari bor. Aynan mamlakatimizda ichki suv yo'llarining rivojlanishi hamda dunyo okeaniga chiqa olishimiz uchun bir qator noqulayliklar mavjuddir. Suv transportimizning rivojlanishiga va kelgusidagi istiqbollarga to'siq bo'lib kelmoqda. Termiz daryo portlning ko'lamini kattalashtirish, zamaonaviy texnologiyalar asosida kema qatnov jarayonini kuzatish, zamonaviy texnologiyalarni olib borish kema qatnoviga salbiy ta'sir qiluvchi omillar yo'qotish, yuklari sifatini buzmasdan manzilga yetqazish uchun kemalar zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi kerak.Bundan tashqari aynan dunyoning rivojlangan manlakatlari daryo portlari ish tajribalaridan kelib chiqi mamlakatimiz ichki qisimda suniy suv xavzalatini tashkil etishimiz bundan tashqari Qoraqalpog'iston respublikasi hamda Xorazim viloyatlardagi portlarni salohiyatini yaxshilash borasida amaliy ishlarni olib borish chet davlatlaridan zamonaviy kemalar keltirish hamda qo'shini davlatlarimiz Turkmaniston, Afg'oniston davlatlari bilan eksport va inport hajmini shu portlar orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Xidiraliye K. E, Karishibayev L. K, "Transport sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi" Guliston-2020.
 - 2.Isayev A. A, "Transport geografiyasi" Toshkent. "Mumtoz so'r" nashriyoti.2019
 - 3.Mavolov A. O'quv qo'llanma. "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" Buxoro-2008
 - 4.Soliyev. A. S. "Ijtimoiy va iqtisodiy gegrafiya"Toshkent." Noshir"2019 5.Abdunazarov L. M, "Markaziy osiyo geografiyasi" Toshkent.
- "Shafoat nur fayz" 2020